

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) .....	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ .....	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI .....	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) .....	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....	69-74
<i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI .....	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) .....	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОЛҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>	
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>	
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	96-101
<i>Eanova Nilufar</i>	
O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>	
АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>	
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	118-124
<i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i>	
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI .....	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>	
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>	
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i>	
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>	
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....	156-161
<i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>	
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....	162-172

<i>Zuxriddin Boltayevich Junaev</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) .....	173-181
<i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) .....	187-197
<i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва миграция масалалари .....	198-203
<i>Azamatova Gulmira Bajirbekovna</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-208
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	209-215
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....	227-232
<i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ .....	233-243
<i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI .....	270-278

<i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i>	
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ....	292-296
<i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>	
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>	
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>	
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS .....	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI .....	341-348
<i>Мусинов Дишод Султанович</i>	
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>	
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ .....	360-368
<i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>	
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....	381-388
<i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i>	
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i>	
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ .....	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>	
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.	441-447
<i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>	
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>	
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	468-479
<i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>	
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY INTELLEKT .....	480-485
<i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ .....	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>	
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....	507-512

**09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>	
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>	
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>	
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR .....	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>	
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i>	
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI .....	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>	
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR .....	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>	
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>	
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>	
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA .....	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>	
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....	582-586
<i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>	
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>	
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA .....	592-596
<i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>	
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSİYASI .....	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>	
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....	616-625
<i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>	
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ .....	626-630
<i>Ҳамраев Сироҷ Абруевич</i>	
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ .....	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>	
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKİSTON VA XORIJ TAJRIBASI .....	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>	
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>	
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI .....	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI .....	656-661

*07.00.00 – Тарих фанлари*

**Qurbanova Manzila Boqiyevna,**  
Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va  
Buxoro tarixi kafedrasи dotsenti, tarix fanlari nomzodi

### **BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI**

**Annotatsiya.** Maqlada Buxoro vohasining an'anaviy milliy shirinlik va ichimliklarning turlari, ularning tayyorlanish texnologiyasi, hududiy, etnolokal va marosimiy xususiyatlari, u bilan halq e'tiqodiy qarashlari dala tadqiqotlari va tarixiy adabiyotlar asosida tahlil etilgan. Buxoroliklarning kundalik turmushi, umuman moddiy madaniyatida shirinliklarning o'rni, holvagarlik hunarining tarixi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** xolva, nisholda, qandolat, marosimiy holvalar, holvagarlar piri, gul sayli, sharbat, shinni, musallas, o'rik sharbati, gulob, haft salom,

---

**Kurbanova Manzila Bakievna**  
Associate Professor, Bukhara State University

### **NATIONAL SWEETS AND DRINKS OF BUKHARA OASIS**

**Abstract.** The article analyzes the types of traditional national sweets and drinks of the Bukhara oasis, their preparation technology, territorial, ethnolocal and ceremonial characteristics, and the beliefs of the people with it based on field research and historical literature. The role of sweets in the daily life and material culture of the Bukhara people, and the history of the holvagari craft have been studied.

**Keywords:** holwa, nisholda, confectionery, ceremonial holwa, holwagar's Saint, gul saili, juice, molasses, musallas, apricot juice, gulob, haft salam

---

**Курбанова Манзила Бакиевна**  
Кандидат исторический наук, доцент кафедры Археологии и  
история Бухары Бухарского государственного университета

### **НАЦИОНАЛЬНЫЕ СЛАДОСТИ И НАПИТКИ БУХАРСКОГО ОАЗИСА**

**Аннотация.** В статье на основе полевых исследований и исторической литературы анализируются виды традиционных национальных сладостей и напитков Бухарского оазиса, технология их приготовления, территориальные, этнолокальные и обрядовые особенности, а также верования народов, связанных с ними. Изучена роль сладостей в быту и материальной культуре бухарцев, история ремесла приготовления халвы.

**Ключевые слова:** халва, сладости, кондитерские изделия, церемониальные халвы, наставник людей, занимающихся приготовлением халвы, праздник цветов, сок, патока, виноградное вино, абрикосовый сок, розовая вода, семь приветствий.

---

**Kirish.** Buxoro vohasida turli-tuman shirinliklar ishlab chiqarish qadimdan odatga aylangan. XIX asrning qirqinchi yillarida N.Xannikov o'z xotiralarida Buxoro bozorida sotiladigan shirinliklar haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan[20, 120]. O.A. Suxarevanning qayd etishicha "biror boshqa joyda Buxorodagidek shirinliklar tayyorlash taraqqiy etmagan. Bu yerda xilma-xil va xususan, qimmatbaho xushxo'r shirinliklar xillariga talab katta bo'lgan"[18, 122].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida voha va uning tumanlarida holvagarlik hunari ancha taraqqiy etgan. An'anaga ko'ra holvagarlar o'z hunarlarini bir-birlaridan sir saqlaganlar. Holvagarlar risolasida qayd etilishicha, bu hunarmandchilikka oltinchi shia imomi Ja'far as-Siddiq asos solgan. Uning nomi ko'pgina risolalarda hunarmandchilik asoschisi sifatida tilga olingan[14, 131].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** N.Xanikov Buxoro xonligi hududida yetishtirilgan meva va poliz xillari (uzum, olma, qovun va x.) va ulardan tayyorlangan mahsulotlarga (shinni, tut, mayiz, qovun qoqi va h.) to'xtalib o'tadi[20, 121-124,129,134,137]. P.I.Nebolsin esa buxoroliklarning choy ichish tartibiga, xususan, shirchoy va ba'zi go'shtli taomlariga e'tibor bergan[12, 16-17]. M.Geyer ham Buxoro qandolatchilik mahsulotlarining xilma-xilligini, dasturxonga tortilgan sho'rva, palov, qovurdoq va holvaytar haqida yozib qoldirgan[3, 4-5].

XX asr boshlarida O'rta Osiyoda ko'chmanchi o'zbek urug' va aymoqlarini o'troqlashuvi jarayonini tarixiy-etnografik jihatdan o'rgangan E.S.Vulfsonning asarida bir qancha masalalar qatorida, uni iste'mol qilish tartibiga ham to'xtalib o'tadi[3, 52-57]. Bu asar bevosita Buxoro vohasiga tegishli bo'lmasa-da, unda o'zbek taomlari to'g'risida berilgan ma'lumotlar mahalliy aholining ayrim taomlari tadqiq etib, ba'zi masalalarda aniqlik kiritishda yordam beradi.

Sovet tarixchi etnografi O.A.Suxarevaning Buxoro hunarmandchiligi va uning aholisiga bag'ishlangan asarlarida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro hunarmandchiligi taraqqiyoti haqida fikr yuritib, oziq-ovqat hunarmandchiligidagi, xususan, shiripazlik ustida batafsilroq to'xtalib o'tgan[17, 208-210].

**Tadqiqot usullari.** Ishda voha aholisining shirinlik va ichimliklar bilan bog'liq e'tiqodlari, marosimlari va munosabatini o'rganish maqsadida dala kuzatuvlari, axborotchilari bilan intervyular hamda retrospektiv usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Vohada Shakar Ganji Vali holvagarlar piri sanalib, u kishining tilidan shogirdlariga quyidagi nasihat qoldirilgan: "Halol paz, halol shin, halol furush, insof dori baraka", ya'ni halol pishir, halol o'tirib tur, halol sotsang, insofing bo'lsa baraka topasan[4]. Haqiqatdan ham, bu hunar egalari o'z ishlarini halol bajarishga intilganlar. Shuning uchun ham Buxoroda holvaning ta'mi o'zga yurtlar aholisi o'rtasida yuqori baholangan. Buxoroni ziyorat qilish uchun kelgan kishilar, albatta, sovg'a uchun holvalardan olib ketganlar.

Vohada bu davrda juda xilma-xil holvalar ishlab chiqarilgan: halvoi lavz, halvoi sobuniy, halvoi akkoli, halvoi ko'fta, hiloli, obinavot, halvoi pashmak, halvoi kunjuti yoki halvoi gardish, halvoyitar va hokazo. Birgina qandolatning danakligi, no'xatligi, yong'oqligi, bodomligi tayyorlangan.

Holvalarning shohi obi-novvot holvasi yoki tojikcha nomi halvoi obi-navvot bo'lib, faqat Buxoro shahrida tayyorlanganligi uchun O'rta Osiyoning boshqa viloyatlarida "Obinaboti Buxoro" vohaning o'zida esa "Obinaboti qandin" va "obinaboti taranjabin" degan xillarga ajratilgan. Holvagar hunarmandlar o'z mahsulotlarini tayyorlash uchun turli xildagi shakar, qand va shinnilardan foydalanganlar. Shakarning taranjabin<sup>\*</sup> shakar lavlagi, shakarqamish singari xillari bo'lган. Qandlar kalla qand, sarqand deb nomlanib, ko'rinishi to'ntarilgan kosa hajmiga o'xshab ketgan. Shinnilar xili ham ko'p bo'lgan. Bular uzum, tut va boshqa mevalarning shinnisidir. Xususan, shibirg'oni uzumidan tayyorlangan suyuq (toj.obaki), quyuq (toj.yaxaki)

shinnilar turli holvalarga ishlatilgan. Holvagarlar shakar tarkibida 56%, qandda 72%, asalda 92%, shinnida 100% shira bo'ladi deb hisoblaydilar[5]. Demak, shinni shirasi baland va o'tkirligini nazarda tutib, u har xil holva tayyorlashda ishlatilgan. Yil fasllariga qarab xar bir holvaning o'ziga xos pishirilish tartibi bo'lgan. Qishda ko'pincha yog'li holvalar, to'y-ma'rakalarda esa maxsus marosimiy holvalar iste'mol qilingan. "Halvoi sobuniy" deb atalgan holva kundalik iste'moldagi shirinlik bo'lsa, nisholda va halvoystar esa hayitlar va to'y marosimlarda pishirilgan.

Xalq orasida keng tarqalgan ba'zi holvalar nisholda, tegirmon holva va obinavot holvalari uchun yetmak o'simligi[19, 41] ishlatilgan. Yetmak o'simligi ildizi ko'pirish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun undan uzoq vaqtlardan beri nisholda va holva tayyorlashda foydalanib kelinadi. Rivoyat keltirilishicha, ollohning oshiqlaridan biri bo'lgan Burqi Sarmast\*\* olloh firoqida cho'llarda devonavor yurib, og'zidan ko'piklar chiqib yerga tushgan. Xuddi shu ko'piklardan yetmak o'simligi (toj.bex) unib chiqqan. Uning birinchi marta qaynatilgan suvi faqat obinavot holvasiga, ikkinchi marta qaynatilgani esa nisholdaga ishlatilgan. Nisholda uchun yetmak ildizi qaynatilib, suvi tindirilgan. Tuxumning oqi sarig'idan ajratilib, tayyorlangan suvga qo'shib qalloq urilgan. 2 kg shakarga 1 kosa miqdorida qiyom pishirilib, sovitib, so'ng tuxum oqi va yetmak suvidan tayyorlangan masallig'iga oz-ozdan solib, chilcho'b yordamida qalloq urilgan. Nisholda mo'tadil holva, ya'ni issiqlik ham, sovuqlik ham emas, unga ishlatiladigan yetmak ildizini mahalliy aholi yo'talga davo deb tan olgan. Bu shirinlik ko'pincha to'y marosimi dasturxoniga olingan. Nisholda tayyorlovchi ustalar xalq ichida "Nishallopaz" deb yuritilgan.

To'y marosimining yana bir shirinligi halvoysi gardish yoki kunjut holva bo'lib, uning tarkibi, shakar, javhar, yetmak ildizi suvi va kunjutdan tayyorlangan. Tegirmon toshi shakliga o'xshatib ishlangan, maxsus tunukadan yasalgan idish yog'lanib, holva qiyomi unga solingan. Shuning uchun ham holva tegirmon holva deb yuritilgan. Uning og'irligi 5-10 kg.gacha bo'lgan. Vohaning deyarli hamma tumanlarida qiz to'yiga kuyov tomon, albatta, tegirmon holva yuborgan. Bu holva oq rangli bo'lib, yuziga kunjut donalari sepilgan. Tegirmon holva to'ydan darak bergen. Xalq o'rtasida kuylangan quyidagi "yor-yor" qo'shig'i tegirmon holva to'y darakchisi ramzi ekanidan guvohlik beradi:

*Mis qozonda kunjutli holva pishdi yor-yor  
Shu qizimga kuyovning ishqil tushdi yor-yor  
Kayvonilar mehmonlarga holva torting yor-yor  
Sevishganlar hayoti holva kabi shirin bo'lsin yor-yor  
Tegirmonli holvaning kunjuti bor yor-yor  
Kuyov bola eshikda diydorga zor yor-yor  
Kelin bilan kuyovga holva torting yor-yor  
Muhabbatni ulug'lab dutor cherting yor-yor [6].*

Shofirkon tumani qishloqlarida qiz to'yiga keltirilgan holvani davraga olishning o'ziga xos odatlari bo'lgan[15, 27].

Qandolat tayyorlashning ham o'ziga xos usulidan foydalanishgan. Buning uchun shakardan pishirilgan qiyom cho'mich yordamida oz-ozgina maxsus tovaga (toj. tobi qandalot) tomizilgan, tova ichida qandolat uchun no'xat yoki bodom, pista, o'rik mag'zları tayyorlab qo'yilgan, mag'zlar qiyomga qo'shilishi uchun tova u yon — bu yonga tashlab olingan. Xuddi shu jarayonda un-urvoq ham sepilgan, keyin esa oq matoga o'rab qo'yilgan. Mag'z tarkibidagi yog' qandolatni yumshoq saqlagan. 5 kg shakardan tayyorlangan qiyomga 1 kg miqdorda mag'z sarflangan.

Qandolatning oq rangi, shirin ta'mi, mag'zliligi uning sifatini, to'yimliligini oshirgani sababli doimo u to'y dasturxoni ko'rkiga aylangan. Shu sababli voha markazida ayollar ham, erkaklar ham sovchilikka qandolatsiz bormaganlar. Chunki qandolatning oppoq rangi baxtsaodat ramzi hisoblanadi.

Voha aholisining kundalik iste'molidagi shirinliklardan biri parvardalardir[1]. Ular qadimiy parvarda yoki dorivorli parvarda, "sebcha parvarda" (shakli olmaga o'xshashligi uchun) akkoli (ikki tomoni uchli shaklda) parvarda va hokazo turlari bo'lgan. Qadimiy parvardalar tarkibiga, albatta, dolchin, za'far va garmdori qo'shilgan. U xuddi yarim oy, ya'ni hilol shaklida yasalgan. Holvapazlar sarqand va kallaqandlarni eritib, parvarda pishirganlar. Vohada turli mevalardan qiyom, shinni, sharbatlar ham tayyorlangan.

XIX asr muallifi Qori Rahmatulloh Vozehning qayd etishicha, vohada murabboning 33 xili tayyorlangan[14]. Albatta, murabbolar rang-barangligi vohada yetishtirilgan sifatli hosildor mevalarga bog'liq edi. O.A.Suxarevaning qayd etishicha, Buxoroda gul saylida maxsus gul xilidan murabbo pishirilgan va mehmon dasturxoniga qo'yilgan[18, 39].

Ayrim mevalar faqat murabbogina emas, shinni, musallas va hatto quritib mayiz sifatida ham ishlatilgan. Masalan, birgina uzumni Buxoroliklar uch xil usulda iste'mol qilganliklarini N.Xannikov yozib qoldirgan[20, 123-124]. Xususan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'ijduvon, Shofirkon, Qorako'l tumanlarida shinnipazlik keng tarqalgan. Bu davrda Shofirkon tumani Pirmast qishlog'ida tayyorlangan shinni butun vohada "Shindi Permast"[7] nomi bilan mashhur bo'lgan. Uzum sharbati maxsus "ispor" deb nomlangan moslama yordamida olingan. Ispor yoki isporxonalarda shinnipazlik bilan shug'ullanganlar. Isporxona devori balandligi 1,5 metr, kengligi 5 bolorli uy hajmida bo'lib, usti ochiq qoldirilgan va moslama ichkaridan tashqariga qarab sharbat oqadigan novalar qurilgan. Novalardan oqqan uzum sharbatlari tindirilib, qozonlarga solib qaynatilgan. Permast shinnisi ko'pincha oq uzumdan tayyorlanib, echki terisidan tikilgan meshlarga solib saqlangan. Ushbu suyuq shinni turli holvalarga ishlatilgan. Quyuq shinni esa asalday iste'mol qilingan. Shinni pishgan mevalardan tayyorlangan[16, 75]. Shuning uchun ham vohada uzumning ayni pishgan davri — oktyabr oyidan boshlab shinnipazlik bilan shug'ullanilgan.

Vohada taomni hazm qiluvchi qiyom ham tayyorlangan, bu qiyom g'o'radan pishirilgan ochadir[10, 108]. Ochor ishtahani ochgani uchun doimo yog'li taomlar bilan iste'mol qilingan. Buning uchun uzum to'la pishib yetilib ulgurmasdan yig'ib olinib, qo'l bilan suvi siqib olingan va bu uzum suviga shakar qo'shib qaynatilgan. Qiyom holatiga tushganidan keyin sopol ko'zachalarga solib saqlangan. Qiyom quyuqligi xuddi asalga o'xshash, faqat mazasi nordon bo'lgan.

Vohada uzumdan shinni, ochorgina emas, musallas ham tayyorlangan. Musallas mayning bir turi bo'lib, uzum sirli xumlarda bostirilib, 15 kun quyosh issig'ida saqlangan. Shundan keyin tayyor bo'lgan mahsulot sim elak yoki dokadan o'tkazilib, iste'molga tayyorlangan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro vohasi o'zbek va tojiklar iste'molidagi ichimliklar kundalik hamda to'y-ma'raka dasturxonlariga tortiladigan ichimliklardan, shuningdek, buloq va avliyo qadamjolari yaqinida qazilgan quduqlarning suvlaridan iborat bo'lgan.

Kundalik iste'moldagi ichimliklarga ko'k choy, qora choy, shirchoy, ayron, chalob, g'o'lingob (o'rik sharbati), gulob kirgan. Aholi yozda, xususan, ko'k choy, qishda esa qora choy iste'mol qilgan. Ko'k choyning zirachoy, g'o'ra choy, bargchoy singari xillari ichilgan. Shirchoy aholining ertalabki nonushtadagi taomi hisoblangan. Yozning issig'ida nafaqat, chanqoqni qondiruvchi, balki javzo va saraton quyoshi salbiy ta'sirini qaytaruvchi ichimlik ayronni

iste'mol qilish xalq orasida odatga aylangan. Yuqorida qayd etilgan ichimliklar faqat Buxoro o'zbek va tojiklari orasidagina emas, balki O'rta Osiyoning boshqa xalqlarining keng iste'molida bo'lgan[21, 122-123].

Vohada turli o'rik navlaridan quritilgan "g'o'lin yoki turshakdan" tayyorlangan o'rik sharbati "g'o'lingob"[10, 115] ichimligi ham o'zbek va tojiklar iste'molida keng o'rinn olgan. Qish davomida kishi tanasida yig'ilgan g'uborlarni haydash uchun g'o'lingob iste'mol qilingan. Shu boisdan bahor kirishi bilan deyarli hamma xonadonlarda bir oy davomida g'o'lingob ichilgan. Bu ichimlikni tayyorlash uchun turshak – ya'ni quritilgan o'rik (toj.g'o'lin) — sovuq suvda chayilib, qaynatilgan suvga kun davomida ivitib qo'yilgan. Navro'z dasturxonni g'o'lingobiga "haft salom"<sup>\*\*\*</sup> ham ivitilgan.

Vohada guldan tayyorlangan gulob shirinlik, ichimlik va ovqatlarga solingan. Bu ichimlikni tayyorlash uchun maxsus qozon (degi gulobkashi)dan foydalanilgan. Buning uchun gul bargak qilib, 8 kg gulga bir paqir suv sarflanib, ichimlik tayyorlangan. Voha axolisi ushbu ichimlikning ko'zni ravshan qilishi va yurakni davolovchi xususiyatidan xabardor bo'lishgan. Shu sababli quyidagi bayt xalq orasida keng tarqalgan[8]:

*"Ro'y়i tu gulu labi tu qand hast,  
Gul qand davoyi dili dardman hast."*

### Tarjimasi:

*"Sening chexrang gul, lablaring qandolatdur,  
Gul qand ersa dili xastaga davodur".*

Gulob – qandob, qand choy, nisholda, haft salom ivitilgan novvotli sharbatga (toj.qandi gulob)[11, 30], ba'zan suyuq ovqatlarga<sup>\*\*\*\*</sup> ham solingan. Bu muattar, xushbo'y ichimlikni me'yorida foydalanish xalq tajribasida sinalgan. Gulob issiqlik bo'lib, uni iste'mol qilish bilan peshob mo'tadillashgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, gulob ko'proq shaharda aslzodalar xonadoni iste'molida bo'lib, qishloq ahli undan deyarli foydalanmagan.

**Xulosa va takliflar.** Xalq dasturxonida qandchoy va qand ob deb atalgan ichimliklar ham bo'lган. Qandchoy qiz to'yining "padaroshi", "Kiyim kiydi", "Mavlud" marosimlari dasturxoniga tortilgan. Qandobning bir xili suv, ikkinchisi esa sutdan tayyorlangan. Qandob kelin-kuyov chimildig'i dasturxoniga, Bibi Seshanba suprasiga, Navro'z dasturxoniga ham tortilgan. Qandchoy har bir mehmonga alohida piyolalarda suzilgan. Qandob esa juft sonda (ikkita yoki to'rtta) shohkosalar (katta kosa)ga solinib, qiz to'yida avval kelin-kuyovga ichirilgan, boshqa marosimlarda esa to'rda o'tirgan mehmonlardan boshlab bir ho'plamdan ta'tib ko'rilgan.

Bundan tashqari, vohada Ramazon oyida o'tkaziladigan "iftor" marosimi dasturxonida ham bir kosa suv qo'yilgan, bu suv (toj. obi iftor) bilan og'iz ochilgan. Musulmon dunyosida iftor suviga maloyikalar nur yog'dirar ekan. Shuning uchun uning bir tomchisini ham oyoq osti qilish uvol, deb qabul qilingan[9].

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasida umrguzaronlik qilgan o'zbek va tojiklar dasturxonidagi shirinlik va ichimliklar rang-barangligi, ularning har biri o'z o'rnida, me'yorida, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, yil fasllariga qarab iste'mol qilinganligi xalq moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksak rivojidan darak beradi.

\* Таранжабин – янтоқ шакар, тонгда янтоққа қўнган шира қоқиб олинади. Куригач шакарга айланади.

\*\* Бухорода Бурқи Сармасти хусусан, ҳолвагар хунармандлар ўзларининг маҳаллий пири деб тан оладилар.

\*\*\* Зъяфар ва шакар қайнатмасидан тайёрланган суюқлик билан нафис қоғозга ёзилган Куръон сураларидан олинган оятлар.

\*\*\*\* Бухоро эронийларида гулобни суюқ овқатларга қўшиб истеъмол қилиш одати бўлган.

### Адабиётлар/Литература/Reference:

1. *Ayniy S. Kulliyot, childi 12.* – Dushanbe, 1976, sah. 512.
2. *Vulfson E.S. Kak jivut sartы.* – M.,1908. – S.52-57.
3. *Geyert I. Vverx po Pyandju (Putevyye vpechatleniya).* Sbornik «Russkiy Turkestan».Tom 1-y. Priljeniye k gazete «Russkiy Turkestan».1899.g. – S.4-5.
4. *Dala yozuvlari.* Buxoro viloyati, Buxoro shahri. 1989 yil, avgust.
5. *Dala yozuvlari.* Buxoro viloyati, Shofirkon tumani. 1997 yil, mart.
6. *Dala yozuvlari.* Buxoro viloyati, Qorako'l va Olot tumanlari. 1999 yil, iyun.
7. *Dala yozuvlari.* Buxoro viloyati, Shofirkon tumani. 1991 yil, may.
8. *Dala yozuvlari.* Buxoro viloyati, Buxoro shahri. 1991 yil, mart.
9. *Dala yozuvlari.* Buxoro viloyati, Buxoro shahri. 1993 yil, avgust.
10. *Mirzayev M. O'zbek tilining Buxoro gruppa shevalari.* – T., 1969. – B.115.
11. *Muhammad at-Tabibal-Haraviy.* Mizoj haqida risola. – T., 1991. – B.30.
12. *Nebolsin P.I. Ocherki torgovli Rossii s Sredney Azii, Jivoy, Buxaroy i.Kokandom (so storony Orenburgskoy linii).* – Spb., 1856. – S.16-17.
13. *Ne'matzoda T. Koni lazzat va xoni ne'mat i Vozex.* – Stalinobod, 1959. Sah. 55.
14. *Niyazova M.I. K voprosu o texnologii proizvodstvo Buxarskix sladostey // Iz istorii kul'turnogo naslediya Buxary.* – T.,1990. – S.131.
15. *Qurbanova M. Supradagi hikmat // Saodat.* – Toshkent. – 1993. – № 2-3. – B.27.
16. *Qo'chqorov U., Ogursov K. Shotut va balxi tut.* – T., 1989. – B.75.
17. *Suxareva O.A. Pozdnofeodalnyuy gorod Buxara konsa XIX nach. XX v. Remeslennaya promышленност.* – T., 1962. – S.122.
18. *Suxareva O.A. Prazdnestvo svetov u ravninnnyx tadjikov (kones XIX -nachalo XX v.) // Drevniye obrayadы verovaniya i kultы narodov Sredney Azi.* Istoriko-etnograficheskiye ocherki. – M.,1986. – S.39.
19. *Xolmatov X.X., Xabibov Z.X., Olimxo'jayeva N.Z. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari.* – T., 1991. – B.41.
20. *Xannikov N. Opisaniye Buxarskogo xanstvo.* – SPb, 1843. – S.120.
21. *Shishov A.Tadjiki.* – T., 1910. – S.122-123.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/1 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъалияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).